



## O'QUVCHILAR PORTFELI ASOSIDA KOMPETENSIYALAR MONITORING TIZIMI.

**Muzaffarova Zebiniso Hikmatullo qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, Fan va  
Innovatsiyalar Vazirligi Osiyo Xalqaro Universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini joriy etishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Portfel texnologiyasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarning individual rivojlanishini monitoring qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kompetensiya, monitoring, o'quvchi portfeli, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati, baholash tizimi.*

## СИСТЕМА МОНИТОРИНГА КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ПОРТФЕЛЯ УЧАЩИХСЯ.

**Аннотация.** *В данной научной статье рассматриваются теоретические и методические основы внедрения системы мониторинга компетенций на основе портфеля обучающихся. Анализируется значение портфельной технологии в оценке знаний, умений и навыков учащихся. Особое внимание уделяется вопросам повышения качества образования на основе компетентностного подхода и мониторинга индивидуального образовательного развития обучающихся.*

**Ключевые слова:** *компетенция, мониторинг, портфель обучающегося, компетентностный подход, качество образования, система оценки.*

## COMPETENCE MONITORING SYSTEM BASED ON STUDENT'S PORTFOLIO.

**Abstract.** *This scientific article examines the theoretical and methodological foundations of implementing a competency monitoring system based on student's portfolios. The significance of portfolio technology in assessing analyzed: special attention is given to improving the quality of education through a competency based approach and monitoring student's individual learning progress.*

**Keywords:** *competency, monitoring, student portfolio, competency – based approach, quality of education, assessment system.*

**KIRISH.**

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning kompetensiyalari – ya'ni bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim jarayonida kompetensiyalarni aniqlash, baholash va tahlil qilishning samarali usullarini joriy etish zarurati tug' ilmoqda.

O'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar faoliyatini muntazam kuzatib borish va individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifati o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi, ijodkorligi va o'z – o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi bilan baholanmoqda. Shu bois tahlil qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda o'quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimini tashkil etish ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va ularning shaxsiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga xizmat qiladi. Portfel o'quvchining o'quv faoliyati natijalari, ijodiy ishlari, loyihalari va yutuqlarini aks ettiruvchi muhim pedagogik vosita bo'lib, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi.

**ASOSIY QISM**

**O'quvchilar portfeli tushunchasi.** O'quvchi portfeli – bu o'quvchining ma'lum vaqt oralig'ida erishgan yutuqlari bajargan mustaqil ishlari, loyihalari, ijodiy faoliyati va baholash natijalarini tizimli ravishda jamlovchi hujjatlar majmuasidir. Portfel o'quvchining nafaqat akademik bilim darajasini, balki uning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, ma'suliyati va ijodiy salohiyatini ham aks ettiradi. Portfel ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyatini baholashning muqobil va samarali shakli bo'lib, an'anaviy baholash tizimiga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. U o'quvchini o'zi ustida ishlashga undaydi, o'z – o'zini baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqani mustahkamlaydi.

**Kompetensiyalar monitoring tizimining mazmuni.** Kompetensiyalar monitoring – bu o'quvchilarning tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarining shakllanish darajasini tizimli ravishda aniqlash, baholash va tahlil qilish jarayonidir. Monitoring jarayoni orqali o'quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyati muammoli vaziyatlarga yondashuvi hamda rivojlanish darajasi aniqlandi. Mazkur tizim o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash individual rivojlanishni ta'minlaydi va ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Portfel asosida olib boriladigan monitoring o'quvchilarning rivojlanish trayektoriyasini belgilashda, pedagogik qarorlar qabul qilishda va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Portfel asosida monitoring olib borishning afzalliklari.** Portfel asosida kompetensiyalar monitoringining olib borish bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:





- O`quvchining individual rivojlanishini uzluksiz va tizimli kuzatish imkoniyati;
- Baholash jarayonining shaffof va adolatli bo`lishi;
- O`quvchini o`z – o`zini baholash va o`z faoliyatini tahlil qilishga o`rgatish;
- O`qituvchiga ta`lim jarayonini takomillashtirish uchun aniq tahliliy ma`lumotlar taqdim etilishi;
- O`quvchilarda ma`suliyat, mustaqillik va motivatsiyaning oshishi.

#### **Takliflar.**

1. Umumta`lim maktablarida portfel texnologiyasini bosqichma – bosqich joriy etish;
2. Umumta`lim maktablarida o`quvchilar portfelini yaratish bo`yicha yagona metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
3. Kompetensiyalar monitoringi uchun aniq mezon va ko`rsatkichlar tizimini ishlab chiqish hamda fanlar kesimida moslashtirilishi lozim.
4. Monitoring natijalariga asoslanib individual ta`limiy o`nalishlarini belgilash.
5. Portfel asosida baholash jarayonini samarali tashkil etish uchun o`quvchilarning malakasini oshirish kurslarida mazkur yondashuvga alohida e`tibor qaratish lozim.
6. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, electron portfel tizimini joriy etishning monitoring jarayonining qulayligi va shaffofligini oshiradi.
7. O`quvchilarni portfel bilan ishlashga o`rgatish orqali ularning o`z – o`zini baholash va refleksiya ko`nikmalarini rivojlantirishga erishishi mumkin.

**Xulosa.**Xulosa qilib aytganda, o`quvchilar portfeli asosida kompetensiyalar monitoring tizimi zamonaviy ta`limning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizim o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini har tomonlama baholash, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta`minlashda samarali natija beradi. Portfel asosidagi monitoring ta`lim jarayonining sifatini oshirish, o`quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va ularni kelajakdagi faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik vosita bo`lib xizmat qiladi. Shu bois ushbu tizimni ta`lim muassasalarida keng joriy etish va takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O`zbekiston Respublikasi Ta`lim to`g`risida`gi Qonuni.
2. Davlat ta`lim standartlari. – Toshkent, 2023.
3. Xojaev B. Ta`limda kompetensiyaviy yondashuv – Toshkent, 2021.
4. Saidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – Toshkent, 2020.  
Internet manbalari ( pedagog.uz, edu.uz).